



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<i>Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</i>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
<i>Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<i>Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</i>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rmi	23
<i>Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</i>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
<i>B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<i>Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<i>Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</i>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
<i>A. Safarov</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<i>Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</i>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
<i>Xolmurodova Sarvinoz</i>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<i>G'afforova Dildora Ergashevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<i>Yusupova Umida Zayniddin qizi</i>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<i>Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</i>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
<i>Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</i>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
<i>Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<i>Xurramova Sojida Abdunazar qizi</i>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
<i>Z. N. Urunova, M. Jaborova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
<i>Sattorova Shirinoy San'atovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<i>Buvrayev Akram Rustam o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
<i>Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</i>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
<i>Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</i>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
Akaboyeva Malika Raxmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
Xoliyeva Sevara Rustam qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
Narmatova Fotima Dilshod qizi	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements.....	127
Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
Meyliyeva Sevinch Bozor qizi	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari	132
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
Дустқобилов Акмал Бобомуродович	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor.....	149
Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Ислонбек Ильесович	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
Amonov Mirjon Namozovich	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni.....	170
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
Jumayeva Guzal Xayriddin qizi	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari.....	187
Axralova Marg'uba Akmalxanovna	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
Jumanova Xafiza Xoliqulovna	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction 205 A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova
	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati 208 Majitov Turg'unali Anvar o'g'li
	Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari 214 Ismoilova Muattar Ilyosovna
	Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari 219 Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li
	Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish 222 Murodova Sayyora Qanoatovna
	Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari 226 Norboyeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li
	Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari 230 Abdunabiyeva Kamola Mansurovna
	Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili 236 Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi
	Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 240 Kozimov Sayfulloh Maxammadjon o'g'li
	Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish 245 Raximov Zokir Toshmirovich
	Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari 249 Temirov Shoirbek Raimjonovich
	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish 253 Kimsanova Rahnamo Solijonovna
	Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish 257 Muratov Muzaffar Shermamatovich
	Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari 261 Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li
	Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari 264 Oblayeva Lobar Erdonovna
	STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations 268 Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi
	Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari 272 Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna
	Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi 276 Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi
	Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools 279 S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova
	Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration 282 Shahlo Obidova
	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish 286 Shodmonova Shoirsa Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi
	Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari 290 Turakulova Feruza Mamadoli qizi



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	

ZAMONAVIY ADABIYOTDA LIDER AYOL PORTRETI VA SHAXSIY RIVOJLANISH FALSAFASI

G'afforova Dildora Ergashevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti magistri

Annotatsiya: Zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazining badiiy talqini, uning shaxsiy rivojlanish jarayonidagi o'rni hamda falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Hozirgi adabiy jarayonda ayol obrazi nafaqat oilaviy yoki ijtimoiy munosabatlar doirasida, balki mustaqil fikrovchi, qaror qabul qila oladigan va jamiyat taraqqiyotiga faol ta'sir ko'rsatuvchi shaxs sifatida tasvirlanmoqda. Lider ayol portretining shakllanishida iroda, mas'uliyat, intellektual salohiyat, ma'naviy yetuklik, ijtimoiy faollik va o'zlikni anglash kabi omillarning muhim ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, shaxsiy rivojlanish falsafasi nuqtayi nazaridan ayol qahramonlarning ichki kechinmalari, hayotiy tanlovlari, maqsad sari intilishi hamda jamiyatdagi o'z o'rnini topish jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Zamonaviy adabiyotdagi lider ayol obrazi inson erkinligi, o'zlikni anglash, ijtimoiy tenglik va ma'naviy kamolot g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy adabiyot, lider ayol, ayol obrazi, shaxsiy rivojlanish, falsafiy qarash, o'zlikni anglash, ijtimoiy faollik, ma'naviy kamolot, badiiy portret, gender tengligi, intellektual salohiyat, ayol qahramon, ijtimoiy ong.

Abstract: The artistic interpretation of the image of a woman leader in modern literature, as well as its role in the process of personal development and philosophical understanding of human identity, is examined. In contemporary literary discourse, the image of a woman is no longer confined to family or social relationships; rather, it is portrayed as an independent, thoughtful, and purposeful personality capable of making decisions and actively influencing social development. Particular attention is paid to such qualities as willpower, responsibility, intellectual potential, spiritual maturity, social activity, and self-awareness in shaping the portrait of a woman leader. From the perspective of the philosophy of personal development, the inner experiences of female characters, their life choices, aspirations toward goals, and their search for a meaningful place in society are analyzed. The image of a woman leader in modern literature is shown to be closely connected with the ideas of personal freedom, self-realization, social equality, gender equality, and spiritual growth.

Key words: modern literature, woman leader, female image, personal development, philosophical perspective, self-awareness, social activity, spiritual growth, artistic portrait, gender equality, intellectual potential, female character, social consciousness.

Аннотация: Рассматривается художественная интерпретация образа женщины-лидера в современной литературе, а также её значение в процессе личностного развития и философского осмысления человеческой личности. В современном литературном процессе образ женщины раскрывается не только в рамках семейных или социальных отношений, но и как образ самостоятельной, мыслящей и целеустремлённой личности, способной принимать решения и активно влиять на развитие общества. Подчёркивается, что в формировании портрета женщины-лидера особую роль играют воля, ответственность, интеллектуальный потенциал, духовная зрелость, социальная активность и самосознание. С точки зрения философии личностного развития анализируются внутренние переживания женских персонажей, их жизненный выбор, стремление к достижению целей и поиск своего места в обществе. Образ женщины-лидера в современной литературе рассматривается в тесной связи с идеями свободы личности, самопознания, социальной справедливости, гендерного равенства и духовного совершенствования.

Ключевые слова: современная литература, женщина-лидер, образ женщины, личностное развитие, философский взгляд, самосознание, социальная активность, духовное совершенствование, художественный портрет, гендерное равенство, интеллектуальный потенциал, женский персонаж, общественное сознание.

KIRISH

Zamonaviy adabiyot inson shaxsining ichki dunyosi, ijtimoiy mavqeyi, hayotiy maqsadlari va ma'naviy kamolotini badiiy-falsafiy jihatdan yorituvchi muhim maydon hisoblanadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda adabiy jarayonda ayol obrazining yangicha talqini, uning jamiyatdagi faol o'rni, mustaqil qaror qabul qilish salohiyati hamda liderlik fazilatlarini keng tasvirlanmoqda. Bugungi adabiyotda ayol obrazi faqatgina mehribon ona, vafodor



turmush o'rtog'i yoki oilaviy muhit vakili sifatida emas, balki o'z hayotiy pozitsiyasiga ega, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi, o'zligini anglashga intiluvchi yetuk shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda.

Lider ayol portreti zamonaviy adabiyotda murakkab va ko'p qirrali badiiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Bunday obrazlarda iroda, jasorat, mas'uliyat, intellektual salohiyat, ma'naviy yetuklik, mustaqil fikrlash va jamiyat oldidagi burchni anglash kabi xususiyatlar mujassam bo'ladi. Ayol qahramonning shaxsiy rivojlanish yo'li esa uning ichki kechinmalari, hayotiy sinovlari, tanlovlari, orzu-maqсадlari va ijtimoiy muhit bilan munosabati orqali ochib beriladi. Shu jihatdan zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazi nafaqat badiiy-estetik, balki falsafiy, psixologik va ijtimoiy mazmunga ham ega.

Shaxsiy rivojlanish falsafasi nuqtayi nazaridan qaralganda, lider ayol obrazi insonning o'z imkoniyatlarini anglash, ichki kuchini safarbar etish, hayotiy maqsad sari intilish va jamiyatda munosib o'rin egallash jarayonini ifodalaydi. Bunday qahramonlar orqali adabiyot inson erkinligi, o'zlikni anglash, gender tengligi, ma'naviy kamolot va ijtimoiy faollik kabi dolzarb g'oyalarni ilgari suradi. Ayniqsa, zamonaviy asarlarda ayolning ichki dunyosi, uning ruhiy o'sishi, jamiyatdagi qarama-qarshiliklarga munosabati va o'z taqdirini o'zi belgilashga bo'lgan intilishi chuqur yoritiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv va ijtimoiy yangilanish jarayonida ayol shaxsining adabiyotdagi talqini jamiyatdagi real o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir. Adabiyotda lider ayol obrazining shakllanishi ayollarning ijtimoiy faolligi, ilm-fan, ta'lim, madaniyat, boshqaruv va ijod sohalaridagi ishtirokining kuchayib borayotganini aks ettiradi. Shu sababli zamonaviy adabiyotda lider ayol portretini o'rganish ayol shaxsining badiiy talqini, uning ma'naviy-ruhiy kamoloti va shaxsiy rivojlanish falsafasini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy adabiyotda ayol obrazini o'rganish adabiyotshunoslik, falsafa, psixologiya va gender tadqiqotlari bilan bevosita bog'liq murakkab ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayol obrazi turli davr adabiyotida turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, zamonaviy adabiyotda u ijtimoiy faollik, mustaqil fikrlash, shaxsiy tanlov, ma'naviy yetuklik va liderlik xususiyatlari bilan namoyon bo'lmoqda. Shu bois lider ayol portretini tahlil qilishda nafaqat badiiy obraz yaratish usullari, balki shaxsning ichki rivojlanishi, o'zligini anglash jarayoni va jamiyat bilan munosabati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotshunoslikda obraz tushunchasi badiiy asarning asosiy estetik kategoriyalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Badiiy obraz orqali yozuvchi inson xarakteri, ruhiyati, dunyoqarashi va ijtimoiy muhit bilan munosabatini ochib beradi. Ayol obrazi esa ko'pincha jamiyatdagi axloqiy, ma'naviy, oilaviy va ijtimoiy qadriyatlarining ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. An'anaviy adabiyotda ayol obrazlari ko'proq sabr-toqat, vafodorlik, mehr, fidoyilik kabi sifatlar orqali tasvirlangan bo'lsa, zamonaviy adabiyotda bu tasvir yangi mazmun bilan boyidi. Endilikda ayol qahramon mustaqil qaror qabul qiluvchi, o'z taqdirini belgilovchi, jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lmagan faol shaxs sifatida ko'rsatilmog'da.

O'zbek adabiyotshunosligida ayol obrazining badiiy talqini masalasi ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Ayniqsa, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhor, Zulfiya, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam kabi ijodkorlar asarlarida ayol obrazining turli qirralari aks ettirilgan. Bu asarlarda ayol qahramonlar ba'zan milliy qadriyatlar saqlovchisi, ba'zan ijtimoiy adolatsizlikka qarshi turuvchi shaxs, ba'zan esa ichki kechinmalari orqali o'zligini anglashga intiluvchi inson sifatida tasvirlanadi. Zamonaviy adabiyotda esa ayol obrazining intellektual salohiyati, kasbiy faolligi, liderlik qobiliyati va shaxsiy erkinlikka intilishi yanada kengroq namoyon bo'lmoqda.

Jahon adabiyotida ham ayol qahramonlar masalasi chuqur o'rganilgan. Virginia Woolf, Simone de Beauvoir, Doris Lessing, Toni Morrison, Margaret Atwood kabi yozuvchi va mutafakkirlar asarlarida ayol shaxsining erkinligi, o'zligini anglash jarayoni, jamiyatdagi mavqeyi va ichki kurashi asosiy mavzulardan biri sifatida talqin etiladi. Ularning qarashlarida ayol faqat ijtimoiy munosabatlarning passiv ishtirokchisi emas, balki o'z hayoti, tafakkuri va qadriyatlarini mustaqil shakllantiruvchi subyekt sifatida qaraladi. Bu yondashuv zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazini tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Lider ayol portretini o'rganishda shaxsiy rivojlanish falsafasi ham muhim nazariy manba hisoblanadi. Shaxsiy rivojlanish falsafasi insonning o'z ichki imkoniyatlarini anglash, hayotiy maqsadlarini belgilash, o'z ustida ishlash, ma'naviy va intellektual jihatdan kamol topish jarayonini o'rganadi. Badiiy adabiyotda lider ayol obrazi aynan shu jarayonlar orqali shakllanadi. Qahramon hayotiy sinovlar, ijtimoiy qarama-qarshiliklar, ichki iztiroblar va muhim tanlovlar orqali ruhiy jihatdan o'sadi. Uning liderlik fazilatlarini tayyor holda berilmaydi, balki voqealar rivoji davomida bosqichma-bosqich ochiladi.

Psixologik yondashuvlarda liderlik shaxsning irodasi, mas'uliyati, tashabbuskorligi, kommunikativ salohiyati va boshqalarga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati bilan izohlanadi. Zamonaviy adabiyotdagi ayol qahramonlar ham ana shu xususiyatlar orqali lider shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ular faqat o'z hayoti uchun emas, balki

atrofidagi insonlar taqdiri, jamiyatdagi adolat, ma'naviy qadriyatlar va kelajak uchun ham mas'uliyat his qiladi. Shu sababli lider ayol obrazi badiiy asarda ijtimoiy-ma'naviy kuch sifatida talqin etiladi.

Gender tadqiqotlari nuqtayi nazaridan qaralganda, zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazining kuchayishi jamiyatda ayol maqomining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda ayollar ta'lim, ilm-fan, siyosat, boshqaruv, tadbirkorlik, madaniyat va san'at sohalarida faol ishtirok etmoqda. Bu jarayon adabiyotda ham o'z aksini topib, ayol obrazining yangi badiiy modelini shakllantirmoqda. Bunday modelda ayol shaxsining faqat tashqi go'zalligi yoki oilaviy vazifalari emas, balki uning tafakkuri, dunyoqarashi, irodasi, intellekti va jamiyatdagi faol pozitsiyasi asosiy mezonga aylanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, lider ayol portreti ko'p qirrali badiiy hodisa bo'lib, u bir vaqtning o'zida adabiy-estetik, falsafiy, psixologik va ijtimoiy mazmun kasb etadi. Bunday obrazlar orqali yozuvchilar insonning o'zligini anglash, hayotda o'z yo'lini topish, jamiyatdagi stereotiplarga qarshi turish va ma'naviy kamolotga erishish jarayonini yoritadilar. Shaxsiy rivojlanish falsafasi esa bu obrazlarning ichki mohiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy va badiiy manbalar zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazining shakllanishi tasodifiy emasligini ko'rsatadi. Bu jarayon jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar, ayollarning faollashuvi, shaxs erkinligi va gender tengligi haqidagi qarashlarning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli lider ayol portretini shaxsiy rivojlanish falsafasi asosida o'rganish zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb ilmiy masalalaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazining badiiy va falsafiy talqinini o'rganishga qaratilgan ilmiy manbalar, adabiy asarlar hamda nazariy qarashlar tahlil qilindi. Ma'lumotlarni yig'ishda qiyoсий-tahliliy, tavsifiy va interpretatsion yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot uchun o'zbek va jahon adabiyotidagi ayol qahramonlar tasvirlangan badiiy asarlar, adabiyotshunoslik, gender tadqiqotlari va shaxsiy rivojlanish falsafasiga oid ilmiy maqolalar asosiy manba sifatida tanlab olindi. Olingan ma'lumotlar badiiy obrazlarning mazmuni, qahramonlarning ichki kechinmalari, ijtimoiy faolligi, liderlik fazilatlarini va o'zlikni anglash jarayonini aniqlash asosida tahlil qilindi. Shuningdek, ayol obrazining zamonaviy adabiyotdagi o'zgarish tendensiyalari umumlashtirish, taqqoslash va ilmiy-mantiqiy tahlil usullari orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy adabiyotda lider ayol portretini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bugungi badiiy jarayonda ayol obrazi an'anaviy tasvir chegaralaridan chiqib, faol ijtimoiy subyekt, mustaqil fikrlovchi shaxs va ma'naviy yetuk qahramon sifatida namoyon bo'lmoqda. Ilgari adabiyotda ayol ko'proq oilaviy munosabatlar, mehr-muhabbat, sabr-toqat, fidoyilik va ma'naviy poklik timsoli sifatida tasvirlangan bo'lsa, zamonaviy asarlarda u jamiyatdagi muhim qarorlar jarayonida ishtirok etuvchi, o'z hayot yo'lini mustaqil tanlay oluvchi, ijtimoiy muammolarga nisbatan faol munosabat bildiruvchi obraz sifatida talqin qilinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, lider ayol obrazining asosiy belgilaridan biri – mustaqil fikrlashdir. Zamonaviy adabiyotdagi ayol qahramonlar mavjud ijtimoiy qarashlarga ko'r-ko'rona ergashmaydi, balki voqelikka tanqidiy yondashadi. Ular hayotiy vaziyatlarda o'z qarorini qabul qiladi, muammolar oldida chekinmaydi va o'zining ichki pozitsiyasini himoya qila oladi. Bu jihat lider ayol portretining shakllanishida muhim mezon hisoblanadi.

Ikkinchi muhim natija shundan iboratki, zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazi shaxsiy rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Bunday qahramonlar asar boshida tayyor lider sifatida ko'rinmaydi. Ular hayotiy sinovlar, ruhiy iztiroblar, ijtimoiy ziddiyatlar va ichki kurashlar orqali bosqichma-bosqich shakllanadi. Demak, liderlik bu yerda tug'ma sifat emas, balki insonning o'z ustida ishlashi, tajriba orttirishi va ma'naviy kamolot sari intilishi natijasi sifatida ochib beriladi.

Uchinchi jihat – lider ayol obrazida iroda va mas'uliyat xususiyatlarining ustuvorligidir. Zamonaviy badiiy asarlarda ayol qahramon ko'pincha murakkab hayotiy vaziyatlarga duch keladi. U oilaviy, ijtimoiy, kasbiy yoki ruhiy muammolar oldida o'zini yo'qotmaydi, aksincha, ulardan saboq chiqarib, yanada kuchli shaxsga aylanadi. Bu jarayon uning liderlik salohiyatini ochib beradi. Ayniqsa, ayol qahramonning faqat o'z taqdiri uchun emas, balki atrofidagi insonlar, jamiyat va kelajak uchun ham mas'uliyat his qilishi uning yetuk shaxs sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Tahlil davomida aniqlanishicha, zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazi o'zlikni anglash falsafasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ayol qahramon o'zining kimligini, jamiyatdagi o'rnini, hayotdagi maqsadini anglashga intiladi. Bu jarayon uning ichki dunyosini chuqur ochib beradi. O'zligini anglagan ayol obrazi tashqi bosimlarga, stereotiplarga va ijtimoiy cheklovlarga qarshi ma'naviy kuch topadi. Natijada u o'z hayotining faol yaratuvchisiga aylanadi.



Zamonaviy adabiyotdagi lider ayol portretida intellektual salohiyat ham alohida o'rin tutadi. Bunday obrazlar faqat hissiyot bilan emas, balki aql, tafakkur, bilim va tahliliy qarash orqali harakat qiladi. Ular voqelikni chuqur anglaydi, muammolarning sabablarini tushunadi va ularga yechim topishga intiladi. Bu esa zamonaviy ayol obrazining yangi sifat bosqichiga ko'tarilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, tahlillar lider ayol obrazining ijtimoiy faollik bilan bog'liq holda shakllanishini ko'rsatdi. Zamonaviy adabiyotda ayol qahramon jamiyatdan ajralgan holda emas, balki ijtimoiy muhit bilan faol munosabatda tasvirlanadi. U jamiyatdagi adolatsizlik, tengsizlik, loqaydlik va ma'naviy inqiroz kabi muammolarga befarq emas. Aksincha, u o'z fikri, harakati va qarorlari orqali ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishga intiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, lider ayol portreti quyidagi asosiy xususiyatlar orqali namoyon bo'ladi:

1. Mustaqil dunyoqarash – ayol qahramon o'z fikri va hayotiy pozitsiyasiga ega bo'ladi.
2. Iroda va qat'iyat – u muammolar oldida taslim bo'lmaydi.
3. Mas'uliyat hissi – u o'z qarorlari va harakatlari uchun javobgarlikni his qiladi.
4. Ma'naviy yetuklik – u hayotiy sinovlar orqali ichki kamolotga erishadi.
5. Ijtimoiy faollik – u jamiyat hayotida faol ishtirok etadi.
6. O'zlikni anglash – u o'z imkoniyatlari, qadriyatlarini va maqsadini anglaydi.

Ijodiy va intellektual salohiyat – u yangicha fikrlaydi va muammolarga ijodiy yondashadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazi nafaqat badiiy qahramon sifatida, balki ma'naviy-falsafiy g'oyaning ifodachisi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. U orqali yozuvchilar inson erkinligi, shaxsiy tanlov, ma'naviy o'sish, gender tengligi va jamiyatdagi faol fuqarolik pozitsiyasi kabi masalalarni ilgari suradilar.

Natijada, lider ayol obrazi zamonaviy adabiyotda quyidagi vazifalarni bajaradi: birinchidan, ayol shaxsining ichki imkoniyatlarini badiiy ochib beradi; ikkinchidan, jamiyatdagi mavjud stereotiplarni qayta baholashga undaydi; uchinchidan, shaxsiy rivojlanish va o'zlikni anglash g'oyalarini ilgari suradi; to'rtinchidan, ayolning ijtimoiy hayotdagi faol o'rini tasdiqlaydi.

Zamonaviy adabiyotda lider ayol portretining shakllanishi jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, ayol shaxsiga bo'lgan munosabatning yangilanishi hamda inson erkinligi haqidagi qarashlarning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi adabiyotda ayol obrazi faqat an'anaviy oilaviy vazifalar doirasida emas, balki mustaqil tafakkur egasi, faol ijtimoiy subyekt va o'z hayotiy pozitsiyasiga ega shaxs sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa zamonaviy adabiy jarayonda ayol obrazining mazmunan boyib, yangi badiiy-falsafiy darajaga ko'tarilganini ko'rsatadi.

Lider ayol obrazini muhkama qilishda, avvalo, uning ichki rivojlanish yo'liga e'tibor qaratish zarur. Bunday obrazlar ko'pincha murakkab hayotiy vaziyatlar, ijtimoiy bosimlar, ruhiy iztiroblar va shaxsiy tanlovlar orqali shakllanadi. Ayol qahramonning liderlik fazilatlarini tayyor holda namoyon bo'lmaydi, balki voqealar rivoji davomida bosqichma-bosqich yuzaga chiqadi. Shu jihatdan lider ayol portreti shaxsiy rivojlanish falsafasining badiiy ifodasi sifatida qaralishi mumkin.

Muhokama jarayonida aniqlanadiki, zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazining asosiy kuchi uning tashqi mavqeyi yoki ijtimoiy maqomida emas, balki ichki irodasi, ma'naviy yetukligi, mustaqil fikrlashi va o'zligini anglash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bunday ayol qahramonlar hayotiy qiyinchiliklardan qochmaydi, aksincha, ularni shaxsiy o'sish va ruhiy kamolot vositasi sifatida qabul qiladi. Bu esa ularning badiiy obraz sifatidagi ishonchligini oshiradi.

Shaxsiy rivojlanish falsafasi nuqtayi nazaridan qaralganda, lider ayol obrazi insonning o'z imkoniyatlarini anglash, o'z ustida ishlash, maqsad sari intilish va jamiyatda munosib o'rin egallash jarayonini aks ettiradi. Zamonaviy adabiyotda bu jarayon ko'pincha ichki monologlar, ruhiy kechinmalar, hayotiy qarorlar va ijtimoiy to'qnashuvlar orqali ochib beriladi. Natijada ayol qahramon nafaqat asar voqealarining ishtirokchisi, balki muhim g'oyaviy-falsafiy yukni ko'taruvchi obrazga aylanadi.

Lider ayol portretining yana bir muhim jihati uning jamiyatdagi stereotiplarga munosabatida ko'rinadi. An'anaviy qarashlarda ayol ko'pincha passiv, itoatkor yoki faqat oilaviy muhit bilan bog'langan shaxs sifatida tasvirlangan. Zamonaviy adabiyot esa bu chegaralarni kengaytiradi. Unda ayol qahramon ijtimoiy muammolarga munosabat bildiradi, o'z fikrini himoya qiladi, adolatsizlikka qarshi turadi va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatishga intiladi. Bu holat lider ayol obrazining ijtimoiy ahamiyatini kuchaytiradi.

Shuningdek, lider ayol obrazida intellektual salohiyat va ma'naviy mas'uliyatning uyg'unligi alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy adabiyotda ayol qahramon faqat hissiyotlar orqali emas, balki tafakkur, bilim, tahlil va ongli tanlov orqali harakat qiladi. Uning qarorlari tasodifiy emas, balki ichki ishonch, hayotiy tajriba va axloqiy pozitsiyaga asoslanadi. Bu esa lider ayol obrazini oddiy qahramon darajasidan murakkab shaxsiy-falsafiy obraz darajasiga olib chiqadi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, lider ayol portreti zamonaviy adabiyotda ayol shaxsining erkinligi, ijtimoiy faolligi, ma'naviy kamoloti va o'zligini anglash jarayonini ifodalovchi muhim badiiy modeldir. Bunday obrazlar orqali adabiyot nafaqat ayol taqdirini tasvirlaydi, balki jamiyatning ayolga bo'lgan munosabatini ham qayta ko'rib chiqishga undaydi. Shu sababli lider ayol obrazini o'rganish zamonaviy adabiyotshunoslik, gender tadqiqotlari va shaxs falsafasi uchun dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Umuman olganda, zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti shaxsiy rivojlanish falsafasi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. U insonning ichki erkinligi, irodasi, maqsadga intilishi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini yorituvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ayol obrazining zamonaviy adabiyotda yangicha mazmun kasb etayotganini va uning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazi shaxsiy rivojlanish falsafasi bilan uzviy bog'liq holda shakllanayotganini ko'rsatdi. Bunday obrazlar orqali ayolning mustaqil fikrlashi, ma'naviy yetukligi, ijtimoiy faolligi va o'zligini anglash jarayoni badiiy jihatdan yoritiladi. Zamonaviy adabiyotdagi lider ayol portreti inson erkinligi, gender tengligi va ma'naviy kamolot g'oyalarning muhim ifodachisi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu asosda zamonaviy adabiyotda lider ayol obrazlarini yanada chuqurroq o'rganish, ularning falsafiy va psixologik jihatlarini tahlil qilish hamda gender tadqiqotlari bilan integratsiyalashgan holda ilmiy izlanishlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta'lim jarayonida zamonaviy ayol obrazlari aks etgan badiiy asarlardan samarali foydalanish yoshlarning ijtimoiy faolligi, mustaqil tafakkuri va ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адабиёт назарияси. 2 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1978.
2. Қуроноу Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007.
3. Қуроноу Д., Мамажоноу З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.
4. Жўраев Н. Адабиёт ва ижтимоий тафаккур. – Тошкент: Ма'naviyat, 2014.
5. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти манзаралари. – Тошкент: O'zbekiston, 2008.
6. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Sharq, 2007.
7. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Sharq, 2007.
8. Ҳамдам У. Янги ўзбек адабиёти. – Тошкент: Akademnashr, 2012.
9. Вулф В. Своя комната. – Москва: Азбука, 2018.
10. Бовуар С. де. Второй пол. – Москва: Прогресс, 1997.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.